



MURABBIY
ILMIY-MA'RIFIY JURNAL

“**MURABBIY**”

**ILMIY-MA'RIFIY
JURNAL**

Issue:2 2021

<https://science.jspi.uz/>



Chief Editor:

S.Nazarkasimov, Doctor of Philosophy (Ph.D) in Sociology, Vice-Rector of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

A.Turaev, senior teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Sh.S.Sharipov - Professor

B.M.Ochilova - Professor

D.Khodjimetova - assistant professor

A.Pardaev - assistant professor

M.N.Khoshimkhonov - assistant professor

A.I.Saidkasimov - assistant professor -

F.K.Akhmedov - assistant professor

B.E.Toshboev - assistant professor

I.N.Akhmedov - PhD

D.Salimova - PhD

N.N.Alimov - assistant professor

M.Saidov - Ph.D.

X.Maxammadiev - teacher

Editorial Representative:

Abrar Turaev

Jizzakh State Pedagogical Institute,
Uzbekistan

Phone: +998933091877

e-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

**ONLINE ELECTRONIC
JOURNAL**

“Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali
“Mentor” scientific-educational
journal

Научно-просветительский
журнал “Наставник”

Indexed By:



Published By:

<https://science.jspi.uz/>

**Jizzakh State Pedagogical
Institute, Uzbekistan**



MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS / АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES/ СТРАНИЦЫ
1	Н.А.Шермухамедова	Даврнинг руҳи ва таълим тизими ислохотларининг мутаносиблиги	4-10
2	С.С.Агзамходжаева	Аёл маънавияти – ҳаёт зийнати	11-16
3	О.М.Ғайбуллаев	Ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти	17-20
4	Г.М.Тўраева	Юксак маънавият маъсулияти	21-28
5	Ф.Б.Ғайзиева	Ёшлар кибер ижтимоийлашуви амалий социологик тадқиқот объекти сифатида	29-32
6	Ф.Маматқулов	Шахс камолотида маънавиятнинг ўрни	33-38
7	А.А.Қамбаров	Ёшларни маънавий-ахлоқий таҳдидлардан ҳимоя қилишда диний ислохотлар масаласи	39-42
8	С.Э.Ибрагимов	Баркамол авлодни шакллантиришда гўзаллик тушунчасининг аҳамияти	43-47
9	И.М.Арзиматова	Глобаллашувнинг ёшлар маънавий тарбиясига салбий таъсири	48-51
10	Г.Х.То`ғайева	Globalashuv sharoitida yoshlarda axborot istemoli madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari	52-55
11	У.Б.Муҳаммадиев	Маънавий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашиш ўзликни англашдадир	56-60
12	Н.Алиматова	Глобаллашув шароитида ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришда интеллектуал кадрларнинг роли	61-65
13	S.A. Pilyak	Analysis of the concept of identity in the context of cultural heritage interpretation	66-71
14	Н.Тангиров	Ижод жараёнининг фалсафий таҳлили	72-75
15	М.Мамажонова	Глобаллашув ва маънавий таҳдидларнинг моҳият-мазмуни	76-78
16	Б. Б. Жалолов	Зардуштийлик таълимоти манбалари таҳлилиянализ источников учения зороатризма	79-82
17	Ф.Абдусаматов	Ёшлар тарбиясида ислом омили	83-86
18	А.А.Абдурахмонов	Давлат ва жамият бошқарувида ёшлар муаммоларини ҳал қилишнинг устувор йўналишлари	87-91
19	M.Nabiyev	Globalashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy	92-96

		tarbiyaning ahamiyati	
20	М.Маматмусаева	Глобаллашув шароитида мафкуравий тарбиянинг ўрни: муаъммо ва ечимлар	97-101
21	Н. Davlatova	Jizzax vohasi tojiklari: an’anaviy turmush tarzi va urf-odatlar	102-108
22	З.Миркомилова	Глобаллашув: манфаатлар ва зиддиятлар	109-114
23	С.Музаффаров	Миллий ахборот хавфсизлигини таъминлаш маънавий ҳаётнинг долзарб вазифаси	115-118
24	С.Тоштемирова	Глобаллашув шароитида маънавиятни шакллантиришда диний бағрикенгликнинг аҳамияти	119-121
25	С.Каримов	Шахснинг ҳаётий мақсадлари ва уларнинг ижтимоий аҳамияти	122-124
26	А.Э.Зиётова, Э.А.Бозоров	Глобаллашув шароитида маънавий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашда таълим-тарбия муассасаларининг вазифалари	125-129
27	А.Ш.Эшмуҳаматов, Ж.Хушбақов	Амир Темур салтанатининг вужудга келиши	130-133
28	А.Пармонов	Ёшлар ватанпарварлиги - хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш кафолати	134-140
29	П.Қулматов	Шах маънавиятини шакллантиришда ота-она масъулияти	141-144
30	Ш.Ж.Хашимов, С.Х.Хашимова	Маънавий глобаллашув, ахборотлашган жамият ва ёшлар тарбияси	145-148
31	А.Холбоев	Ёш авлодни юксак маънавиятли шахс қилиб тарбиялашнинг назарий – педагогик асослари	149-154
32	А.Пўлатов	Мусулмон мамлакатларида ислом омили ва сиёсий фаолият	155-161
33	Н.Абулҳасан	Виртуал терроризм ва унга қарши курашиш	162-172
34	М.Мухаммадсидиқов	Mintaqaviy hamkorlik jarayonlarining metodologik asoslari	173-180
35	М.Сайидов	Жамият маънавий-ахлоқий муҳитини такомиллаштириш йўллари	181-186
36	А.Рўзиев	Дунёқарашда тарихий хотира ва онгнинг ўзаро деалектикаси	187-193

MINTAQAVIY HAMKORLIK JARAYONLARINING METODOLOGIK ASOSLARI

M.M.Muhammadsidiqov, siyosiy fanlar doktori, professor

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Mintaqa, mintaqaviylashuv, siyosat, xalqaro mintaqaviy siyosat, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy hudud, ittifoqlar, xalqaro siyosiy mintaqqa, mintaqqa, nizo, siyosat, xalqaro mintaqaviy siyosat, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy mojaro, ittifoqlar, xalqaro siyosiy mintaqqa, urush, hududiy nizolar.*

Asrlar mobaynida urushlar o‘chog‘i, jahon urushlarining asosiy ishtirokchisiga aylangan Yevropa davlatlari mintaqaviy hamkorlik tufayli 70 yildirki, urushsiz yashamoqda. Yevropa hamkorligi haqida Yevropa Markaziy bankining sobiq vitse-prezidenti T.Padao-Shioppa, o‘zining “Yevropa - jamoaviy kuch” kitobida “Urushdan keyin butun dunyo kabi Yevropa ham o‘sha davr qiyinchiliklariga duch keldi. Lekin hamkorlikdagi harakati uni bu qiyinchiliklardan boshqalarga nisbatan tezroq va osonroq qutulishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqining tajribasi dunyoni keyingi rivojlanishiga o‘rnak bo‘la oladi” – deb yozadi.

Bugungi kunda aynan hamkorlik natijasida ushbu davlatlar dunyoning eng yetakchi davlatlari safidan o‘rin egalladi. Ularning tarixiy tajribasidan kelib chiqib, dunyoning boshqa mintaqalarida joylashgan mamlakatlar ham mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini shakllantirishga intilmoqda. Jumladan, mintaqamizda ham bu jarayon o‘ziga xos tarzda kechmoqda. Ana shunday sharoitda mintaqaviy hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish, uni amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi bobda biz «mintaqaviy hamkorlik» tushunchasi, mazmun va mohiyatini, mintaqaviy hamkorlik tizimi, unga xos murakkab munosabatlar, mintaqaviy ham- korlik jarayonining asoslari va ularni rivojlantirish zaruriyati, unga ta'sir etuvchi omillar haqida to‘xtalamiz.

Hamkorlik tushunchasi ijtimoiy-siyosiy fanlarda XX asrning 20-yillarida talqin qilina boshlandi. Bu masala ko‘proq konflikt tushunchasi bilan yonma-yon uning oldini oluvchi vosita sifatida o‘rganilgan. 1960-yillarga borib g‘arbda integratsiya jarayonlari kuchayishi hamkorlikni jiddiy o‘rganishga, unga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirishga olib keldi. Bunda integratsiyaga hamkorlikning bir shakli sifatida qaraldi.

Mazmun va mohiyatiga ko‘ra «hamkorlik» tushunchasi ko‘p qirrali. Shu boisdan uni qo‘llanilayotgan sohasiga qarab turlicha talqin qilish mumkin. “Hamkorlik” tushunchasi ijtimoiy-falsafiy lug‘atlarda turlicha talqin etiladi. Hamkorlik - maqsad va manfaatlar to‘g‘ri kelganda ikki yoki undan ortiq tomon o‘rtasidagi ijobiy hamfaoliyat hisoblanadi. Bunda hamkorlikning manbasi maqsad va manfaat o‘rinli ko‘rsatilsa-da, ammo u faqat ijobiy faoliyat o‘rnida talqin qilinadi. Vaholanki, hamkorlik har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi. Zero, insoniyat istiqboliga soya solayotgan terroristik tashkilotlar ham o‘zaro hamkorlikka intiladi.

Boshqa bir talqinga ko‘ra, hamkorlikni bevosita konflikt bilan bog‘lashga e’tibor qaratilgan. Unda yozilishicha u - tomonlarning birgalikdagi faoliyati, konfliktlarning oldini olishi yoki unga birgalikda yechim izlashga oid yo‘nalish bo‘lib, hamma ishtirokchilarning manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi. Bunda muhim jihat manfaatdorlik ochib berilgan bo‘lsa-da, konflikt masalasiga urg‘u berish hamkorlik mohiyatini tushunishga to‘sqinlik qiladi. Chunki, hamkorlikdan maqsad faqat konfliktni oldini olish emas, balki o‘zaro manfaatlarni qondirishdir.

Yana bir masala - hamkorlik vaziyatmi yoki jarayonmi masalasida turli qarashlar o‘rtaga tashlanadi. Masalan, g‘arb tadqiqotchilaridan R.Koxeyn davlatlararo hamkorlikni tahlil qilarkan, unga aktorlar faktik yoki kutiladigan manfaatdorlik uchun o‘z munosabatlarini tartibga solish vaziyati (situation) deb yondoshadi.

Xalqaro hamkorlik masalasini uzoq yillar tadqiq qilgan g‘arb olimi E.Milner bu jarayon ekanligini ilgari surib, uch elementdan tashkil topishini ta’kidlaydi:

- hamkor davlatlarning umumiy maqsadi;
- vaziyatdan foydani (manfaatdorlikni) kutish;
- manfaatdorlikni o‘zaro xarakterga egaligini ilgari surish.

Olimning fikricha yuqoridagi uch elementning reallikka aylanishi esa yaxlit jarayonni qamrab oladi.

Rossiyalik professor P.A. Tsgankov hamkorlikni jarayon bilan bog‘liqligiga to‘xtalib, uni muzokara, kelishuv va unga amal qilishdan iborat yahlit jarayon, - deydi.

O‘zbekistonlik olim R.Alimov ham hamkorlikning jarayon ekanligini asoslaydi. U mintaqani o‘rganishga bag‘ishlangan kontseptsiyalarda “integratsiya” va “hamkorlik” roli haqida to‘xtalib, ular mohiyatan jarayon ekanligini qayd etadi.

Masalaga falsafiy jihatdan yondoshsak, vaziyat deganda ma'lum bir jarayon natijasida vujudga kelgan holat tushuniladi. Jarayon ma'lum tamoyillar asosida davom etayotgan o‘zgarish hisoblanadi. Vaziyat tugallangan, jarayon tugallanmagan hali davom etadigan h latdir.

Falsafiy lug‘atlarda jarayon muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan hodisaning davomiyligi deb talqin qilinadi. Yoki, jarayon - voqealar rivojidadagi uzluksizlikni ifodalovchi falsafiy tushuncha sifatida qabul qilinadi.

Yoki professor S.Otamuratov “jarayon tabiat, jamiyat va insoniyat hayotida kechadigan voqea va hodisalarning uzluksizligini anglatuvchi tushunchadir. Uning o‘zak mohiyatini ana shu uzluksizlik tashkil qiladi” - degan qarashni ilgari suradi.

Hamkorlikda vaziyat ham belgilovchi omil hisoblanadi. Chunki vaziyatdan kelib chiqib yoki uni shakllantirish uchun hamkorlik amalga oshiriladi. Biroq hamkorlikni ibtidosidan boshlab intihosigacha bo‘lgan oraliq esa jarayon bilan bogliq. Shunga asoslanib ham- korlikni jarayon sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarga asoslanib, hamkorlikni ikki yoki undan ortiq subyektning ummumanfaatdorlik uchun birgalikdagi amaliy faoliyati, deb talqin qilish mumkin.

Hamkorlik turli shakllarda, xususan sohasiga ko‘ra, iqtisodiy, harbiy, madaniy, siyosiy; ishtirokchilariga ko‘ra ikki tomonlama, ko‘p tomonlama; ko‘lamiga ko‘ra davlatlararo, mintaqaviy, global; darajasiga ko‘ra faol, sust hamkorlikka ajratiladi.

Mavzumizdan kelib chiqib, mintaqaviy hamkorlik haqida to‘xtalsak. Bizningcha mintaqaviy hamkorlikni o‘rganishda hamkorlik bilan birga bu mavzu uchun muhim bo‘lgan kategoriya mintaq (region) hisoblanadi. Shundan kelib chiqib “mintaqa” tushunchasiga to‘xtalamiz.

Taniqli nemis olimi Karl Doytch mintaqani turli yo‘nalishda bog‘lanadigan hududiy birlik sifatida talqin qilib, uchta asosiy belgi- sini qayd etadi.

1. Umumiy geografik yaqinlik.
2. Hamkorlikning doimiyligi va intensivligi.
3. Mintaqa tizimi haqidagi umumiy yondashuv.

Shvetsiyalik professor B.Xettne mintaqani ushbu jihatlari mavjudligini ta’kidlaydi:

- tabiiy chegaralar bilan cheklangan geografik va ekologik birlik (masalan, Yevropa Atlantikadan -Uralgacha);
- ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tartibotning translokall munosabatlarda aks etishi;
- ichki yaxlitlikning mavjudligi, birdamlik yoki qismlar bilan genetik bogliqlikning mavjudligi;
- xalqaro munosabatlarda alohida maqomga egaligi va tan olishi.

Rossiyalik tadqiqotchilar A.A. Sergunin va L.Remkeldalar talqiniga muvofiq, mintaq superatama bo‘lib, aholi, hudud, umumiy tarix, tabiiy sharoit va muammolarni echish xarakterini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rinib turibdiki, mintaqaga uning asosiy belgilaridan kelib chiqib yondashish ko‘proq qo‘llaniladi.

“Mintaqaviy hamkorlik” tushunchasi haqida ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik tadqiqotchi Olga Butorina mintaqaviy hamkorlik to‘grisida “globallashuv sharoitida dunyo stratifikatsiyasi jarayoniga bir guruh davlatlarning anglangan faol ishtiroki modelini o‘zida aks ettiradi, degan kontseptsiyani ilgari suradi. Ta’rif lo‘nda va ancha mukammal bo‘lib, mintaqaviy hamkorlik aynan globallashuv sharoitida yuz berayotganligini, bu anglangan faoliyat ixtiyoriylik asosida sodir bo‘lishini aytadi. Tadqiqotchi ko‘proq jarayon asosiga e’tiborni qaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuvda makon omili aks etmagan. Ya’ni, ma’lum bir mintaqada joylashishi sharti ko‘rsatilmagan. Bunday yondashuv asosida global hamkorlik bilan mintaqaviy hamkorlikni farqlash qiyin kechadi.

G‘arb tadqiqotchisi E.Xaas bu atamani milliy ko‘lamda harakat qiluvchi davlatlarni o‘ziga torta oladigan yangi siyosiy ta’sir etuvchi markazlarning vujudga kelish jarayoni, deydi. Muallif yondashuvda asosiy e’tiborni jarayon mahsuliga qaratadi va Yevropa ittifoqi hamkorlik modelidan kelib chiqib yondashishiga harakat qiladi. Bugungi kunda nafaqat siyosiy ta’sir markazlari, shuningdek, iqtisodiy ta’sir markazlari ham mintaqaviy hamkorlikni ta’minlab bermoqda. Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek “...barcha ishtirokchi mamlakatlar tomonidan tanlangan va vujudga keltirilgan umumiy boshqaruvchi tuzilmalar faoliyat olib borayotgan Yevropa ittifoqi bilan bir qatorda Janubiy Sharqiy Osiyo (ASEAP) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ATES) mamlakatlari

tajribasi ham mavjud. Biroq ularda milliy davlatlardan yuqori turuvchi Parlamentlar, Vazirlar kengashlari va boshqa birlashtiruvchi tuzilmalar yo‘q”.

Rossiyalik tadqiqotchilar N.Liventsev va V.Xarlamovlar “mintaqaviy hamkorlik umumiy ko‘rinishda bir qator davlatlarni bosqichmabosqich birlashuvi natijasida yangi yaxlit xo‘jalik organizmi - xalqaro mintaqaviy majmua shakllanishi”, - degan fikrni ilgari suradilar. Tadqiqotchilar jarayon mahsuliga e’tibor qaratib, qaysi tamoyillar asosida birlashuviga e’tibor qaratishmaydi. Masalan, imperiyalar- da davlatlar kuch asosida bosqichma-bosqich birlashtirilib yagopa xo‘jalik “organizmi” shakllanadi. Vaholanki, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida moyillik va tenglik ustuvorlik kasb etmogi, eng muhimi bu jarayon milliy suverenitetga, mustaqillikka daxd qilmasligi lozim.

Rossiya FA Lotin Amerikasi instituti olimlarining tadqiqotlarida mintaqaviy hamkorlik globallashtiruvning ulkan raqobati davrida mintaqa davlatlari uchun islohotlarni jadallashtiruvchi qo‘shimcha jarayon va xalqaro munosabatlarga to‘g‘ri yo‘l ochuvchi voqelik sifatida talqin qilinadi. Shunga o‘xshash yondashuvni ko‘plab integratsion birlashmalarning hujjatlarida ham uchramiz. Masalan, MERKOSUR davlatlari hujjatlarida “Umumiy bozorning tashkil etilishi ulkan iqtisodiy makonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlarga o‘ziga xos javob bo‘ladi”deb yozib qo‘yilgan.

Mintaqaviy hamkorlikning bugungi kundagi natijalari ham (mintaqaviy hamkorlikni yuqori cho‘qqisi mintaqaviy integratsiyaning kuchayishi) tushunchaga turli ta’rif berishga sabab bo‘lmoqda. Ya’ni, ba’zi olimlar mintaqaviy hamkorlik natijasida ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasida chegaralarning yo‘qolib ketishi tushuniladi desa, boshqalari davlatlarning yagona iqtisodiy-siyosiy birlikka jiplashishi sodir bo‘lishini ilgari suradi. Yana bir talqinga ko‘ra, mintaqaviy hamkorlik ishtirok etuvchi subyektlarning o‘zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan jarayon tushuniladi.

Ko‘rinib turibdiki, «mintaqaviy hamkorlik» tushunchasiga yagona ta’rif ishlab chiqilmagan. Ammo aksariyat nazariyotchilar mintaqaviy hamkorlik ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator imkoniyatlari yaratishini e’tirof etishadi. Shu bilan birga, yuqoridagi fikrlar- ing mintaqaviy hamkorlikni jarayon ekanligi va ma’lum mintakada kechishi, ma’lum tamoyillar asosida shakllanishini inobatga olib, mintaqaviy hamkorlik - bu obyektiv zaruriyat natijasida ma’lum bir mintaqa davlatlarining tenglik, ixtiyoriylik, ummummilliy manfaatlarning uyg‘unlashuvi asosida birgalikdagi faoliyati, deb ta’rif berish mumkin. Bunda mintaqaviy hamkorlik o‘zagini obyektiv zaruriyatdan boshlanib, ma’lum tamoyillar asosida mintaqaviy integratsiyani shakllantiruvchi yaxlit jarayon tashkil etadi.

Xo‘sh, mintaqaviy hamkorlik boshqa turdosh jarayonlardan nimasi bilan farqlanadi yoki uning o‘ziga xos belgilari nimada? Avvalo, bunday hamkorlik tenglik, yaxlitlik manfaatlar uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Tarixda aynan bir xil modeldagi mintaqaviy hamkorlik uchramaydi.

Birinchidan, bu hamkorlikning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, turli modellari va turlari borligini bildirsa, ikkinchidan jarayon subyektlarining imkoniyatlari,

milliy manfaatlari, mintaqalar turli- tumanligi va davr talabining o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq masala ham mavjud. Bundan tashqari, jarayonga mintaqaga xos omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bundan o‘ggtiz yil oldin Yevropadagi hamkorlik jarayonlarini o‘rgangan olim V.Baranovskiy nazariy tadqiqotlarda turdosh tushunchalar bog‘liqligini inobatga olish zarurligini asosli ta’kidlagan edi. Zero turdosh tushunchalarni qiyosiy tahlili ularning mohiyat- ini ochib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, “mintaqaviy hamkorlik” ning “globallashuv”, “mintaqaviy integratsiya” bilan bog‘liqligi va farqli tomonlari haqida to‘xtalib o‘tish lozim.

Mintaqaviy hamkorlik va globallashuv. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov globallashuv haqida to‘xtalib: “globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi” ekanligini qayd etadilar. Globallashuv va mintaqaviy hamkorlik haqida tadqiqotchilar tomonidan turli fikrlar bildirilmoqda. Jumladan, M.Lebedeva hamkorlikni globallashuv jarayonining muhim bir qismi ekanligini qayd etadi. Yana bir rossiyalik olim L.E.Grinin ‘Globallashuv - bu mintaqalar va umuman jahonning hamkorligi, yaqinlashuvning natijasidir’, degan fikrni ilgari suradi.

Globallashuv va mintaqaviy hamkorlikning farqli jihatlari mavjud. Birinchidan, globallashuv dunyoni universallashuviga olib borsa, mintaqaviy hamkorlikda mintaqadan tashqaridagi davlatga nisbatan ma'lum cheklovlar qo‘yiladi. Ikkinchidan, miitaqaviy hamkorlik jarayonida tomonlarning manfaatdorligiga amal qilinadi. Ya’ni, undan bir tomon emas, balki barcha tomonlar manfaat ko‘radi. Globallashuv jarayonida esa, bu amalga oshmaydi. Bundan tashqari, globallashuvda tengsizlik mavjud bo‘lsa, mintaqaviy hamkorlmk tenglik, xohishiylik tamoyillari asosida rivojlanadi.

Mintaqaviy hamkorlik barqarorlikning samarali vositasi. U mintaqaning rivojlanishiga imkoniyat yaratish bilan birga. globallashuvning ijobiy jihatlaridan to‘la foydalanish, salbiy ta’sirlarini cheklash imkonini beradi. U ishtirokchi davlatlar guruhining tenglik, ihtiyoriylik, umummanfaatlar ustuvorligi asosiga quriladi.

Mintaqaviy hamkorlik globallashuvdan farqli ravishda tenglik, ihtiyoriylik, eng muhimi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik asosida shakllanayotganligini alohida qayd etish lozim. Shu nuqtai nazardan, u insoniyat taraqqiyoti uchun faqat ijobiy ahamiyag kasb etsa, globallashuvning insoniyat boshiga ne kunlar solishini bugungi kunda uning ayrim qusurlari vujudga kelganligi bilan ham izohlash mumkin. Aniqroq qilib aytganda globallashuv ko‘proq yetakchi davlatlar manfaatlariga xizmat qilib, davlatlar o‘rtasida tabaqalanishga, keskinlikka, eng yomoni, xalqaro tartibotda ikki qutbli yoki bir qutbli dunyo shakllanishiga xizmat qilsa, mintaqaviy hamkorlik dunyoda kuchlar balansini muvozanatga keltirishga, ko‘p qutbli dunyoni shakllanishiga, davlatlararo tinchlikni ta'minlanishiga yordam beradi.

Buni ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan G‘arb olimlari ham e’tirof etishmoqda. Masalan, amerikalik tadqiqotchi K.Doytch mintaqaviy hamkorlikni “davlatlararo tinchlikni ta'minlashi mumkin bo‘lgan real imkoniyat”, deb baholaydi. Professor V.Bobkov “O‘zaro hamkorlik unda ishtirok etuvchi subyektlarga shunday moddiy,

intellektual va boshqa vositalarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib beradiki, bunday imkoniyatlarga alohida olingan hech bir davlat umuman erisha olmaydi», degan fikrlarni bildiradi.

Globalashuv insoniyatning xohish va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mevasi bo‘lib, u obyektiv jarayondir. Lekin ana shu jarayondan turli kuchlar, davlatlar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib, qolganlarni o‘zlari ortidan ergashtirishga harakat qilmokdalar. Bu borada rossiyalik olim A.Duginning “hozirgi paytda dunyoda borastgan globalashuv jarayonida biz amerikacha jamiyatdan nusxa olingan tsivilizatsion modelni boshqa davlatlarga ularning xohishiga qarshi ravishda tiqishtirish va o‘rnatishni ko‘rmoqdamiz”, degan fikrlari asosiga o‘xshaydi.

Globalashuv jarayoniga doir tadqiqotlar olib borayotgan va bir nechta monografiyalar chop ettirgan professor S.Otamuratovning bu masalaga qarashlari diqqatga sazovor. “Globalashuv real jarayon sifatida bir qator omillar bilan bugun yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning ustuvorligini ta’minlashga, kam taraqqiy qilgan yoki taraqqiyot yo‘liga kirayotgan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarning ongi, qalbi va dunyoqarashida “boqimandalik” ruhiyatini rivojlantirmoqda. Fikrimizcha, ular quyidagilar orqali yuzaga kelmoqda:

a) iqtisodiyot omili; b) fan-texnika va texnologiya yutuqlarini ommalashtirish; v) yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning qudratli iqtisodiy, intellektual va uddaburonlik salohiyati ustuvorligi asosida vujudga kelgan “ommaviy madaniyat” ni jahon xalqlari o‘rtasida keng yoyish va ular ongiga singdirish borasida olib borayotgan faoliyatlar orqali o‘z ifodasini topmoqda”.

Yana bir o‘zbekistonlik olim N.Tuxliev ham globalashuv va mintaqalashuvni solishtirib “Globalashuv jahon xo‘jalik aloqalarining barcha qatnashchilari uchun ularning real salohiyatidan qati nazar, o‘yin qoidalarini birxillashtirish (unifikatsiyalash)ni taqozo etadi. Mintaqalashuv esa qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi alohida preferept-sial, ya’ni imtiyozli, masalan, boj undirilmaydigan, ko‘nroq qulaylik tarkibini yaratish tamoyiliga asoslangan bo‘lishi mumkin”, degan fikrni ilgari suradi. Olim ikki jarayonning muqim jihati unifikatsiya va prefentsiya orqali globalashuv va mintaqaviylashuvni mohiyatini ochib beradi.

Yuqoridagi jarayonlarning rivojlanish tendentsiyalarini kuzatadigan bo‘lsak, mintaqaviy hamkorlik jarayonida rang-baranglik, xilma-xillik namoyon bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bir xil modeldagi mintaqaviy hamkorlik mavjud bo‘lmaydi. Bo‘lishi ham mumkin emas. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- a) mintaqalarning taraqqiyot darajalari;
- b) milliy mentalitetdagi turli tumanlik;
- v) hozirgi paytda jahon miqyosida turli ziddiyatlarning kuchayishi;
- g) mintaqaviy manfaatlarning turli-tumanligi.

Globalashuvda esa umumiylik namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, globalashuv haqida o‘rtaga tashlangan ilmiy bashoratlar kishini o‘ylantirib, mintaqaviy hamkorlikni obyektiv zaruriyat sifatida anglab etishga turtki

beradi. Masalan, dunyoning shakllanish jarayoni ikki yo‘ldan borishi mumkinligi haqida tadqiqotchilar bashorat qiladi:

birinchisi, yaxshi boshqarilmaydigan, turli kuchlar o‘rtasidagi kelishmovchilik yo‘li. Bu yo‘ldan borish oqibatida insoniyatni dunyoviy halokat kutadi (bugun uning u yoki bu ko‘rinishiga guvoh bo‘lmoqdamiz);

ikkinchisi, yangicha dunyoviy tuzilmalarni shakllantira borish orqali inqirozlarni boshqarish taraqqiyot davomiyligini ta'minlash imkonini berishini e'tirof etishadi. Nazarimizda, mintaqaviy hamkorlik jarayon sifatida yangi tuzilmalarni shakllantirishga keng imkoniyat beradi.

Globalashuv davrida insoniyatning bugungi kungacha erishgan ma'naviy boyligi xavf ostida qolmoqda. Eng xatarlisi, globalashuv - o‘ta murakkab hamda notekis jarayon sifatida o‘ng‘aysizlikni keltirib chiqarib, boshqarib bo‘lmaydigan darajaga etdi.

Globalashuv davlatlararo chegaralarning “yuvilib” ketishiga, transmilliy korporatsiyalar (TMK), turli xil nohukumat tashkilotlarning xalqaro maydonga chiqishiga yo‘l ochib bermoqda. Bugungi kunda TMKlar xalqaro munosabatlarda ham mustahkam mavqega ega bo‘lib, son jihatdan ham davlatlardan o‘zib ketdi. Globalashuv natijasida ko‘pchilik mamlakatlar bir yo‘la 100 dan ortiq tashkilotlarda muntazam ishtirok etishga majbur bo‘lmoqdalar. Masalan, Daniya - 164, Frantsiya - 155, Buyuk Britaniya - 140, AQSh -122, O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar faoliyatida muntazam qatnashmoqda.

Fikrimizcha, agar tegishli tadbir, choralar ko‘rilmasa, kelajakda davlatlar milliy manfaatlarni himoya qilishda globalashuvning lokomotivlari bo‘lgan TMKlar bilan raqobatlasha olmaydilar. Globalashuv oqibatida siyosiy xavfsizlik uchun javobgar bo‘lmagan kuchlarning mavqei oshishi esa, professor T. Jo‘raev ta'kidlaganidek, tizimbardor tayanchlarning barbod bo‘lishiga olib keladi. Bugungi kunda butun hamjamiyatni tashvishga solayotgan global iqtisodiy inqiroz aynan ana shu tizimbardor tayanchlarning yemirilishidan nishonadir. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun milliy manfaatlarni uyg‘unlashtira olgan hamkorlik lokomotivlari bo‘lgan mintaqaviy qurilmalarni shakllantirish zarur bo‘ladi.

Bu borada milliy manfaatlar masalasiga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Ular obyektiv zaruriyatdir. Aslini olganda, davlatlarning xalqaro maydondagi harakati ham o‘z manfaatlari yuzasidan bir maqsad- ni amalga oshirish ehtiyoji bilan bogliq. Milliy manfaatlar mavjud ekan, ularni himoya qilish ham muhim. Zero, globalashuvning talabi bo‘lgan barchaning manfaati aynan bir vaqtda va bir masalada bir xil-da bo‘lishi mumkin emas, unga intilishning o‘zi yangi muammolarni tug‘diradi. Bundan tashqari, globalashuv davlatlar yoki tomonlarning ma'lum masalada manfaatdorligini turlicha bo‘lishiga olib keladi. Chunki o‘yin qoidalarini birxilashtirishdan rivojlangan davlatlar ko‘proq manfaatdor bo‘ladilar. Bunday sharoitda norozilik, manfaatlar qarama-qarshiligi kuchayadi. Natijada insoniyat yangi mojarolar, urushlar girdobiga tushib qolishi mumkin. Bizningcha mintaqaviy hamkorlik orqali bu muammoning oldini olsa bo‘ladi. Ya'ni, mintaqaviy hamkorlik

jarayonlari oqibatida davlatlar milliy manfaatlarini uyushgan holda, hamkorlikda har qanday kuch oldida himoya qila oladilar.

Xullas, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari globallashuvning ijobiy jihatlarini rivojlantirishga, salbiy jihatlaridan himoyalanihga imkon yaratadi. Shu bilan birga davr talabi bo‘lgan xalqaro tizimni isloh qilishga, xalqaro munosabatlarda yangicha gartibotlar shakllanishiga, insoniyat uchun vorisiylikni, taraqqiyot davomiyligini ta'minlashga imkoniyat paydo bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, mintaqaviy hamkorlik umuminsoniy taraqqiyot nuqtai nazaridan konstruktiv jarayon bo‘lsa, globallashuvning destruktiv jihatlarini ham mavjud.

Adabiyotlar

1. Мухаммадсиддиқов, М. (2021). ХИТОЙНИНГ ЎРТА ШАРҚДАГИ СИЁСИЙ-ИҚТИСОДИЙ ДИПЛОМАТИЯСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1)*, 669-678.
2. Исроилова, Г., & Мухаммадсиддиқов, М. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ СОҲАНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 196-200).
3. Muhammadsidiqov, M. (2018). THE INFLUENCE OF "RELIGIOUS FACTOR" ON ETHNO-POLITICAL AND CONFESSIONAL CONFLICTS IN MUSLIM COUNTRIES. *The Light of Islam: Vol: Iss. 1, Article 18*.
4. Muhammadsidiqov, M. (2015). Stability of North African Region. *Int. J. of Multidisciplinary and Current research, 3(In Eng)*.
5. MUHAMMADSIDIQOV, M. (2015). Ўзбекистан’да toplumsal yashamin ana özelliği hoşgörü. *Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, (54)*, 7-14.
6. Mukhammadsidiqov, M. (2021). PROBLEMS OF THE INFLUENCE OF POLITICAL ISLAM ON SOCIAL STABILITY. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(12)*, 30-37.
7. Mukhammadsidiqov, M. (2020). MINTAQAVIY HAMKORLIK JARAYONLARINING METODOLOGIK ASOSLARI. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.
8. Muhammadsidiqov, M. (2021). INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI: MAZMUN VA MOHIYATI. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, (1), 68-77.
9. Muhammadsidikov, M. (2009). Religious tolerance as the main feature of the public life of Uzbekistan. *Eurasian Journal of Regional and Political Studies, (40)*, 69-72.
10. MUHAMMADSIDIQOV, M. MAIN FEATURE OF SOCIAL LIFE IN UZBEKISTAN. *Atatürk University. Journal of Social Sciences, (54)*, 7.
11. Nazirov, M., & Mukhammadsidiqov, M. (2020). Central Asia: Involvement of Afghanistan in Regional Development Processes. *The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(12)*, 266-272.
12. Mukhammadsidiqov, M. (2021). Problems of Escalation of Religious Xenophobia in the ERA of Globalization. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(12)*, 17-23.